Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржохон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуритдинова Мафтуна Жахонгировна	



AYRIM TA'LIM TIZIMI BILAN BOG'LIQ TERMINLARNING IZOHLI LUG'AT VA ETIMOLOGIK LUG'AT O'RTASIDAGI FARQI

Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti magistri

Email: xoliqovamahbuba04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikada yerga mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi va uning hozirgi holati, O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mulkchilik, yer, qishloq xo'jaligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar, agrar soha, mulkdorlar, fermer, dehqon xo'jaligi.

Abstract: As a result of institutional reforms in the agrarian sector of Uzbekistan, the structure of agricultural entities has undergone significant changes. The analysis of the period from 2000 to 2023 shows that the share of the state in agricultural production decreased from 35% to 0.6%. The majority of agricultural output is now produced by farmers and household plots. The article provides recommendations for the rational use of land and water, improvement of the investment climate, and the involvement of the private sector in agricultural development.

Key words: agrarian reforms, agriculture, farming households, investment, ARDL model, land reclamation, water resources, ownership structure, forecasting.

Аннотация: В результате проводимых в Узбекистане институциональных реформ в аграрной сфере существенно изменилась структура хозяйствующих субъектов. На основе анализа периода 2000–2023 годов выявлено, что доля государства в производстве сельскохозяйственной продукции сократилась с 35% до 0,6%. Основную часть производства составляют фермерские и дехканские хозяйства. В работе с использованием модели ARDL проанализированы факторы, влияющие на валовую добавленную стоимость сельского хозяйства, такие как инвестиции, занятость и экспорт.

Ключевые слова: аграрные реформы, сельское хозяйство, фермерские хозяйства, инвестиции, модель ARDL, мелиорация, водные ресурсы, структура собственности, прогнозирование.

KIRISH

Ta'lim tizimi rivojlanishi bilan bog'liq terminlarning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish tilshunoslik va pedagogika fanlari uchun muhim masala hisoblanadi. Xususan, terminlarning izohli lug'atlarda berilishi ularning hozirgi davrdagi ma'nosini, qo'llanish doirasini va stilistik xususiyatlarini ochib bersa, etimologik lug'atlar ushbu terminlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi hamda morfologik o'zgarishlarini izohlaydi.

Mazkur maqolada aynan ta'lim tizimi bilan bog'liq ba'zi terminlar misolida izohli lug'at va etimologik lug'at tahlili o'rtasidagi farqlar ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ta'lim sohasida ishlatiladigan atamalarning asl ildizini anglash ularning to'g'ri qo'llanishini ta'minlash, tarjima va tushuntirish jarayonlarida aniq metodologik yondashuv ishlab chiqishga yordam beradi. Shu maqsadda, maqolada izohli lug'at va etimologik lug'at tushunchalarining nazariy asoslari, ta'lim terminlari misolida ularning berilish uslublari va semantik o'ziga xosliklari qiyosiy tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim terminologiyasi masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, izohli va etimologik lug'atlar o'z vazifasi va maqsadiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Jumladan, Akbarovning "O'zbek tilshunosligida terminlarning izohlanishi va etimologiyasi" nomli ishida izohli lug'atlar terminning hozirgi davrdagi ma'no doirasini aniqlashga xizmat qilishi, etimologik lug'atlar esa uning tarixiy ildizini, kelib chiqishini izohlashga yo'naltirilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, Abdullayev tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda izohli lug'atlarning o'quvchilarga, talabalar va mutaxassislariga atama ma'nolarini tushuntirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, u izohli lug'atlar ta'lim jarayonida tushunishni yengillashtirsa, etimologik lug'atlar ilmiy izlanishlarda keng qo'llanilishini qayd etgan.

Davlatovning "O'zbek tili izohli lug'ati tuzilishi va funksiyasi" nomli tadqiqotida lug'at maqolalarida atamaning semantik tuzilishi, sinonimik qatori va stilistik belgilari izohlab berilishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, Mamatovning etimologik lug'atlar bo'yicha tahlillarida har bir terminning morfemik tarkibi, tarixiy fonetik o'zgarishlari va boshqa tillardan kirib kelganlik izlari aniqlanishi lug'atning asosiy vazifasi sifatida belgilanadi.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Crystal tomonidan olib borilgan ishlar ham ushbu masalada muhim o'rin tutadi. Uning "A Dictionary of Linguistics and Phonetics" asarida lug'atlar turlarining lingvistik va amaliy farqlari yoritilgan bo'lib, terminologik lug'atlar bilan etimologik lug'atlarni chalkashtirmaslik uchun tahliliy metodlardan foydalanish tavsiya etilgan. Shuningdek, Haspelmath o'zining tipologik va etimologik tadqiqotlarida terminlarning tarixiy rivojlanishini o'rganish lingvistik izlanishlar uchun muhim empirik asos bo'lishini ta'kidlagan.

Mazkur adabiyotlar tahlili ko'rsatmoqdaki, izohli lug'atlar ta'lim jarayonida kommunikativ va tushuntirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etsa, etimologik lug'atlar atama kelib chiqishini, uning madaniy va tarixiy asoslarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu ikki lug'at turi bir-birini to'ldiruvchi manbalar sifatida o'rganilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar olish uchun o'zbek tilidagi izohli va etimologik lug'atlardan tanlab olingan ta'lim terminlari qiyosiy tahlil qilindi, ularning ma'no izohi va kelib chiqishiga oid ma'lumotlar ajratib olindi hamda semantik-strukturaviy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar nazariy tahlil va qiyoslash usuli orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sanaladi. Ta'limga oid terminlarni chuqur anglash esa bu tizimning mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Har bir atama o'zida tarixiy jarayonlar, madaniy o'zgarishlar va til taraqqiyotini mujassamlashtirgan bo'ladi. Rus faylasufi P. A. Florenskiy terminlarning fandagi o'rnini quyidagicha izohlagan: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat... Terminlar hayoti fan tarixining o'zidir".

Har bir so'zning izohi, asl ma'nosi, etimologik kelib chiqishini o'rganish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'zbek tilida ko'p ishlatiladigan "ta'lim", "tarbiya", "maktab", "pedagog", "doktorant" va "aspirant" so'zlari orqali biz ta'lim jarayonining asosiy terminlari haqida so'z yuritamiz. Ushbu maqolada ushbu so'zlarning lug'aviy ma'nosi va etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishi haqida to'xtalamiz hamda izohli lug'at bilan etimologik lug'at o'rtasidagi farqni yoritamiz.

Izohli va etimologik lug'at farqi: Izohli lug'at – so'zning hozirgi ma'nosi, ishlatilish doirasi, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Etimologik lug'at esa – so'zning qayerdan kelgani, qanday tarixiy o'zgarishlarga uchragani, asl ildizi haqida ma'lumot beradi.

Izohli lug'atga ko'ra:

TA'LIM – o'rgatish, o'qitish, ilm berish; ma'lumot.

Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim va tarbiya ajralmas egizaklar bo'lib, ma'lumot ularning totli mevasidir. P. Usmonov.

Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. Boshlang'ich ta'lim. Oliy ta'lim. Madrasa ta'limi. — Ilk bor alifbodan olganda ta'lim. E. Vohidov, Muhabbatnoma.

Tarbiya, odob-axloq. Ta'limi yo'q bola. — Arabboy qancha o'qisa ham, uning qiliq va gapirishi, yurish-turishi maktabda ta'lim ko'rgan kishini emas, balki chapani aravakashni eslatib turar edi. P. Tursun, O'qituvchi.

Ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv. [Sidiqjon] hech kimga qaramay, ketmonni qay xilda chopish to'g'risida Mallavoy aka bergan ta'limga ham rioya qilmay, kuyib-pishib ishladi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. (Izohli lug'atdan 27–28-betlar)



Etimologik jihatdan: Arabcha ta'lim(un) shaklida bo'lib, ta'lim (ta'lim) so'zidan olingan. Bu so'z aslida alima fe'lining "o'qitdi", "o'rgatdi" ma'nosini anglatuvchi allama (o'rgatmoq) fe'lidən hosil qilingan. "O'qish-o'rganish, kuzatish orqali hosil qilingan bilim-ko'nikmalar" kabi ma'noni anglatadi.

Izohli lug'atga ko'ra:

TARBIYA – rivojlantirish; parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish.

Ta'lim, axloq-odob va hokazolarni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirish. Qiz o'n olti yoshgacha bu oilada, muzika muallimi bo'lgan kambag'al amakining tarbiyasida o'sdi. Oybek. Tanlangan asarlar.

Insonda ish-hunar, odob-axloq va hokazolarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi. Siyosiy tarbiya. G'oyaviy tarbiya. Maktab tarbiyasi. Tarbiyasi borasida bir qator shart-sharoitlar barqaror bo'lishi lozim. Gazetadan. (Izohli lug'atdan 678-bet)

Etimologik jihatdan: Bu arab tilidagi tarbiyat so'zidan kirib kelgan. Asli arab tilidagi rabba (boqdi, tarbiyaladi) fe'lidən kelib chiqqan. O'zbek tilida "jismonan va axloqan parvarishlash" ma'nosini anglatadi.

Izohli lug'atga ko'ra:

MAKTAB – o'qish joyi; yozuv stoli; bo'lim, idora.

O'qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o'rgatib, uni ma'lumotli qiluvchi ta'lim-tarbiya muassasasi. Boshlang'ich maktab. Internat maktab. O'rta maktab. Maktabga kirmoq. Bolani maktabga bermoq. — Bolaga oila ham, maktab ham baravar tarbiya berishi, odob-axloq o'rgatishi shart. Gazetadan. (Izohli lug'atdan 532-bet)

Etimologik jihatdan: Bu arabcha so'z maktab(un) shakliga ega, "yozdi" ma'nosini anglatuvchi kataba fe'lidən yasalgan o'rin oti bo'lib, aslida ko'p ma'noli. Bu so'z o'zbek tiliga "yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi muassasa" ma'nosi bilan o'zlashtirilgan.

Izohli lug'atda:

PEDAGOG – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, o'qituvchi. Pedagogning vazifasi yuksak, murakkab va oliyanobdir. "Fan va turmush".

Etimologik jihatdan: Yunoncha paidagogos – tarbiyachi. "Pais" – bola, "agogos" – yo'l ko'rsatuvchi. Dastlabki ma'nosi: "bolani yetaklovchi" (qadimgi Yunonistonda maktabga olib boruvchi kishi). Keyinchalik bu so'z ma'nosi o'zgarib, "tarbiyachi, o'qituvchi"ga aylangan. O'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan.

Izohli lug'atda:

DOKTORANT – ilmiy daraja (fan doktori) olish uchun dissertatsiya ustida ishlayotgan va maxsus ilmiy ta'lim olayotgan shaxs. — Universitetda bir nechta doktorantlar ilmiy izlanish olib borishmoqda.

Etimologik lug'atda: Doktorant – rus tili orqali kirgan. Lotincha doctor – "o'qituvchi, ustoz" so'zidan olingan. Bu so'zdan fransuzcha va ruschaga o'tgan shakli doctorant – "fan doktori bo'lishga intilayotgan shaxs" ma'nosida ishlatilgan. Keyinchalik bu shakl o'zbek tiliga o'zlashgan.

Izohli lug'atda:

ASPIRANT – aspiranturaga qabul qilingan, fan nomzodi darajasini olish uchun ilmiy ish ustida ishlayotgan shaxs. U biologiya yo'nalishida aspirant sifatida izlanishlar olib bormoqda.

Etimologik lug'atda:

Aspirant – lotincha aspirare – "intilmoq, harakat qilmoq, orzu qilmoq" fe'lidən kelib chiqqan. Bu asosdan fransuz va rus tillarida aspirant shakli yasalgan. O'zbek tiliga rus tili orqali kirgan.

Ilmiy tizimda aspirant va doktorant o'rni (O'zbekistonda)

Aspirant (hozirgi atama bilan – magistraturagacha bo'lgan davrda qo'llanilgan). Ilgari, ya'ni Sovet davrida va mustaqillikning dastlabki yillarida, aspirantura degan bosqich bo'lgan. Bu bosqichda o'qiyotganlar "aspirant" deb atalgan, maqsadi – fan nomzodi ilmiy darajasini olish. Hozirgi zamonda "aspirant" atamasi deyarli ishlatilmaydi. Uning o'rnini "mustaqil izlanuvchi" yoki "doktorant" tushunchalari egallagan.

Doktorant (hozirgi rasmiy atama). Bu atama hozirgi O'zbekiston ilmiy ta'lim tizimida faol qo'llaniladi. Doktorant – bu DSc (Doctor of Science) yoki PhD (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchidir. Ular universitet yoki ilmiy markazda tahsil oladi, dissertatsiya yozadi va himoya qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida "aspirant" so'zining muqobili sifatida "magistratura bitirgach ilmiy ish qilayotgan talaba" yoki bevosita "ilmiy izlanuvchi", "tayanch doktorant" atamaları ishlatiladi. Rasmiy ta'lim tizimida esa bu so'z o'rniga "tayanch doktorant" (ya'ni PhD bosqichidagi tadqiqotchi) atamasi qo'llaniladi. Shuningdek, oddiy tilda ba'zida "doktorant" deb ham atashadi, lekin bu aspirantlikdan keyingi bosqich bo'lgan mustaqil doktorantura (DSc) ni anglatadi. Bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida bu atama "tayanch doktorant" bilan almashtirilgan.

Doktorant – rus tilida bu so'z "докторант" shaklida bo'lib, odatda PhD (tayanch doktorantura) bosqichidan keyingi – mustaqil doktorlik dissertatsiyasi (DSc) ustida ishlayotgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Zamonaviy



o'zbek tilida ham "doktorant" va "tayanch doktorant" farqlanib ishlatiladi: tayanch doktorant – PhD bosqichidagi izlanuvchi, doktorant esa DSc (yoki klassik doktorlik) bosqichidagi mustaqil izlanish olib borayotgan shaxs.

"Aspirant" va "doktorant" so'zlari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning lug'aviy va ilmiy tizimdagi o'rnini farqlidir. Izohli lug'at bu so'zlarning hozirgi ma'nosi va qo'llanishini, etimologik lug'at esa ularning kelib chiqishi va tarixiy ildizini ochib beradi. Ilmiy tizimda esa "aspirant" atamasi tarixiy (Sovet davriga oid) bo'lib, bugungi kunda o'rnini "doktorant" egallagan. Hozirda doktorantlar PhD yoki DSc darajasi olish uchun ilmiy izlanish olib boruvchi rasmiy maqomga ega shaxslardir.

Tilimizda keng qo'llaniladigan ta'lim, tarbiya, maktab va pedagog kabi so'zlar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning izohli va etimologik lug'atlardagi tavsifi farqlanadi. Bu farqlar so'zlarning hozirgi zamon mazmuni bilan tarixiy kelib chiqishi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi.

"Ta'lim" so'zi izohli lug'atda bilim berish, o'rgatish jarayoni sifatida izohlanadi. Etimologik jihatdan esa bu so'z arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "ilm" ildizidan hosil bo'lgan va "bilim berish" ma'nosini bildiradi.

"Tarbiya" so'zi izohli lug'atda insonning axloqiy, jismoniy, ma'naviy kamoloti jarayoni sifatida ta'riflanadi. Etimologik lug'atda esa bu so'z arabcha "tarbiya" so'zidan olingan bo'lib, "o'sish, rivojlanish" ma'nolarini anglatadi.

"Maktab" so'zi zamonaviy ma'noda ta'lim-tarbiya beriladigan o'quv muassasasi degan tushunchani bildiradi. Etimologik jihatdan esa u arab tilidagi "k-t-b" (yozmoq) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab "yoziladigan joy" ma'nosini anglatgan.

"Pedagog" so'zi esa o'zbek tilida o'qituvchi yoki tarbiyachi ma'nosida ishlatiladi. Biroq bu so'z aslida qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "paidagogos" — ya'ni "pais" (bola) va "agogos" (yetaklovchi) so'zlarining qo'shilmasidan hosil bo'lgan. Dastlab bolalarni maktabga yetaklovchi kishi bo'lsa, keyinchalik ta'lim beruvchi mutaxassis ma'nosini olgan.

Shunday qilib, izohli lug'at bu so'zlarning hozirgi zamondagi amaliy ma'nolarini ochib bersa, etimologik lug'at esa ularning kelib chiqishi, tarixiy ildizi va asl ma'nolarini yoritib beradi. Har ikki lug'at turini taqqoslab o'rganish orqali so'zlarning chuqur mazmuniga, tilimizdagi semantik boylik va tarixiy qatlamlarga yanada kengroq nazar tashlash mumkin bo'ladi. Ushbu so'zlarning kelib chiqishini o'rganish nafaqat tilga nisbatan hurmatni oshiradi, balki tilimizning tarixiy chuqur ildizlariga ham nazar tashlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'atlardagi yoritilishi ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega. Izohli lug'atlar orqali terminlarning hozirgi davrdagi qo'llanilishi tushuntirilsa, etimologik lug'atlar ushbu terminlarning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Bu ikki manba birgalikda o'rganilganda, tilshunoslik va pedagogika sohalarida terminologik izlanishlarning yanada samarali olib borilishiga zamin yaratadi.

Kelajakda ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan terminlarning etimologik asoslarini muntazam ravishda o'rganish, yangi tuzilayotgan izohli lug'atlarda etimologik ma'lumotlarni ham qisqacha berish, shuningdek, lug'at tuzishda qiyosiy va tarixiy-lug'aviy tahlil usullarini uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. Bu esa, nafaqat terminlarning to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi, balki o'quvchilar va tadqiqotchilarning til tafakkurini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. (1–5 jildlar)
3. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Qodirov A. va boshqalar. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
5. Ravshanov Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Abduazizov A. Lingvistik tafakkur va so'z ma'nosi. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Encyclopaedia Britannica Online. Entry on "Pedagogy" and "Etymology". www.britannica.com



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
